



“OR-NOMUS” KONSEPTI ETNOLINGVISTIKASINING SEMANTIK
STRUKTURASI

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i03.031>

Yuldosheva Guli Xayrulla qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

+998977194224

yuldoshevaguli7@gamil.com

Abstract. This article analyzes the issues of *or*, *oriyat*, *iffat*, *g‘urur*, *sharaf*, and *nomus*, which constitute the basis of the concept of “or-nomus.” The denotative meanings, connotative meanings, and other context-dependent semantic interpretations of each seme are examined. The study also explores the origin of the lexemes that form the concept of “or-nomus,” which is widely used in the Uzbek language, as well as their semantic development and the main components within their semantic structure. In the course of the research, the etymological sources of these lexical units, their usage in historical and lexicographical sources, and the layers of meaning they possess in modern Uzbek are analyzed through comparative and descriptive methods. The semantic fields of the words *or* and *nomus*, their semantic proximity and differences, are identified, and the role of these concepts within the system of national mentality and moral values is analyzed from a linguocultural perspective. The results of this study contribute to enriching research in Uzbek linguistics in the areas of conceptual semantics, etymology, and linguoculturology.

Keywords: “or-nomus” concept, *or* lexeme, *nomus* lexeme, semantic structure, etymology, conceptual semantics, linguoculturology, lexical meaning, national mentality, moral values.

Annotatsiya. Mazkur maqolada “or-nomus” konseptining asosi bo‘lgan *or*, *oriyat*, *iffat*, *g‘urur*, *sharaf*, *nomus* masalalari tahlilga tortilgan. Har bir semaning ifoda semasi, konnotativ semasi va ularning matnga ko‘ra ifodalashi mumkin bo‘lgan boshqa turli ma‘nolari ochib berilgan. Maqola davomida o‘zbek tilida keng qo‘llanadigan “or-nomus” konsepti tarkibiga kiruvchi leksemalarining kelib chiqishi, semantik taraqqiyoti hamda ularning semantik strukturasidagi asosiy komponentlar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mazkur birliklarning etimologik manbalari, tarixiy-lug‘aviy manbalardagi qo‘llanishi, shuningdek, zamonaviy o‘zbek tilidagi ma‘no qatlamlari qiyosiy va tavsifiy usullar asosida o‘rganiladi. “Or” va “nomus” so‘zlarining semantik maydoni, ularning o‘zaro semantik yaqinligi va farqli jihatlari aniqlanib, mazkur tushunchalarning milliy mentalitet hamda axloqiy qadriyatlar tizimidagi o‘rni lingvokulturologik jihatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida konseptual

semantika, etimologiya hamda lingvokulturologiya yo‘nalishlarida olib borilayotgan izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: or-nomus konsepti, or leksemasi, nomus leksemasi, semantik struktura, etimologiya, konseptual semantika, lingvokulturologiya, leksik ma’no, milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar.

Kirish (Introduction). Til xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy qadriyatlari va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisalardan biridir. Har bir til tizimida xalqning asrlar davomida shakllangan axloqiy me’yorlari, qadriyatlari hamda madaniy tasavvurlari muayyan tushunchalar orqali ifodalanadi. Shunday ifodalardan biri kognitologiya, lingvokulturologiya fanlarining o‘rganish obyekti hisoblangan konsept kategoriyasidir. O‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari, bugungi kun o‘zbek milliy mentaliteti tilshunoslik nuqtai nazaridan bir nechta umumiy konseptlar asosida yuzaga chiqqan. Shunday muhim konseptlardan biri “or-nomus” konsepti hisoblanadi. Mazkur ifoda o‘zbek xalqining g‘ururi, nomusi, xalq sha’ni, qolaversa, shaxsiy qadriyat ekanligidan tashqari butun ommaga tegishli bo‘lgan milliy edintetit ham hisoblanadi. Mazkur ifodaning kelib chiqish ildizlari qadimiy turkiy dunyoqarash, islomiy falsafa hamda Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liq.

“Or” va “nomus” leksemalari o‘zbek tilida ko‘pincha birgalikda qo‘llanib, shaxsning axloqiy pokligi, uyat hissi, vijdoniy mas’uliyati hamda jamiyat oldidagi sha’ni kabi ma’nolarni anglatadi. Biroq ushbu birliklar mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lishiga qaramay, ularning kelib chiqishi, semantik rivoji va ma’no qamrovi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu jihatdan “or” va “nomus” so‘zlarini etimologik hamda semantik nuqtai nazardan alohida o‘rganish, ularning o‘zaro munosabatini aniqlash tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda tilshunoslikda konseptual tahlil, lingvokulturologik yondashuv hamda semantik tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday yondashuvlar orqali til birliklari faqat lug‘aviy ma’no doirasida emas, balki xalqning madaniy va ma’naviy tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. “Or-nomus” konsepti ham o‘zbek xalqining milliy mentaliteti, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birlik sifatida ilmiy tahlilni talab etadi. Mazkur maqolada “or-nomus” konseptining tarkibiy qismlari bo‘lgan “or” va “nomus” so‘zlarining kelib chiqishi, semantik taraqqiyoti hamda ularning semantik strukturasini tahlil qilishdan iborat.

O‘zbek tilida “or” va “nomus” so‘zlari o‘zaro ma’nolari bir-biriga yaqin deb qaraladi va shu jihatdan sinonimik qator hisoblanadi. Ikki leksema o‘zaro sinonim hisoblanganda *uyat, iffat, sharm-hayo, axloqiy poklik* kabi ma’nolarni bildiradi. Biroq tub lug‘aviy ma’nolarida ma’lum farqlar ko‘zga tashlanadi. “Or” leksemasining semalari sifatida *g‘urur, sha’n, faxr* kabi ifodalardan tashqari *o‘ziga munosib bo‘lmagan ishga nisbatan javob berish, uyalish, xijolat tortish* kabi ma’nolarni tushunish mumkin. “Or” konsepti ko‘p jihatdan insonning ichki psixologiyasi va shaxsiy “men”iga bog‘liq bo‘ladi. Bu konseptning asosiy semalari – uyat, hayo,

ichki axloqiy nazorat, izzat-nafs, nojo‘ya harakatdan tiyilish va shaxsiy qadrni saqlashdir. Shu nuqtayi nazardan “nomus” ifodasi esa o‘zbek tilida xalqning eng muhim qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan, chuqur ijtimoiy-axloqiy munosabatni ifodalovchi konsept hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur konsept o‘z ifoda semasida shaxsning sha‘ni, ijtimoiy qadriyati, iffat va insonning o‘z burchini anglash kabi semalarni bildiradi va shuning uchun ham “nomus” konseptining asosiy semalari sifatida sha‘n va qadr-qimmat, axloqiy poklik, uyat va hayo, mas‘uliyat, ijtimoiy baholash, qadriyat va himoya qilish tushunchalarini ko‘rsatish mumkin. Mazkur maqolamizda tahlil etilayotgan “or-nomus” konsepti esa yuqorida berilgan barcha ma’nolarning yig‘indisi bo‘lib umumiy semani ifodalaydi va shunga ko‘ra tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Yuqorida aytilganidek, “or-nomus” konseptining kelib chiqish ildizlari qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, turli millatlar mentaliteti va Sharq falsafasi asos bo‘lib xizmat qilgan. Shunday ekan bunday ifodalarning ilk ko‘rinishi VIII asrga tegishli bo‘lgan O‘rxun-Enasoy bitiklarida ham uchraydi. Bu qadimgi yozma yodgorlikda or-nomus konseptining ifodasi shaxsning qadr-qiyamati, uning el-ulusi oldidagi sha‘n va ma‘uliyati, shuningdek, qadr-qimmat va shaxsiy obro‘-e‘tiborni ham ifodalaydi. Quyida “Kultigin” bitikdoshidan olingan parchaga e‘tibor qiling:

“Türük bodun üçün tün udumadım, küntüz olurmadım.

Kül tigin er atıg or atıg alp er atıg buldı”

“Turk xalqi uchun tunlari uxlamadim, kunduzi tinchim bo‘lmadi. Kültegin bahodirlik, sharaf (or), qahramonlik nomini oldi”. Ma‘nosidan ham bilinib turgani kabi bu jumlada biz tahlilga tortayotgan konseptning ifodasi or so‘zi bilan berilgan va aynan shu jumlada ulus o‘rtasidagi bir kishining qozongan obro‘-e‘tibori, sharaf-shoni kabi ma’nolarni ifodalagan.

Xalq og‘zaki ijodiga tegishli bo‘lgan qator dostonlarda ham mazkur ifodaga keng o‘rin ajratilgan. Masalan, “Alpomish” dostonida Alpomishning dastlab yori Barchinning nomusini himoya qilish uchun yolg‘iz o‘zi qalmoqlar tomonga borishi, so‘ngra esa o‘z ota urug‘ining nomini oqlashi uchun yolg‘iz o‘zi dushmanlar domiga kirishi o‘zbek urug‘larida qadimdan or va nomus tushunchalarining asosiy mezon ekanligidan darak beradi.

Davriy nuqtayi nazardan X-XV asrlarda yaratilgan turkiy yozma yodgorliklarda, jumladan, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy asarlarida mazkur konsept axloqiy fazilat, yuksak mezon sifatida qadrlangan. Quyida keltirilgan baytlarga e‘tibor qiling:

*Or ila nomusni tark aylagan odam emas,
Kimki insondur, anga bu ikki ziynat kam emas.*(Alisher Navoiy)

*Kishi orini saqlar, bo‘lsa agar nomusi bor,
Nomussiz kishining qadri bo‘lmas el aro.* (Bobur)

*Nomusini saqlagan kishi izzat topgay,
Nomusdan ayrilgan el ichra xor bo‘lgay.* (Sadiy Sheroziy)

XIX-XX asrlarda esa “or-nomus” konsepti ma’naviy-axloqiy tarbiya, insoniylik mezonini sifatida qo‘llaniladi. Bunday asarlarga misol qilib maqol, matal, xuddis hu davrlarda yaratilgan asarlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Namuna:

Orsiz odam – boshsiz odam, Yetti nomus – bir o‘lim, Or ketgan joyda obro‘ ham ketadi, Yigitning xuni – yuz tanga, or-nomusi – ming tanga.

Bugungi kunda “or-nomus” masalasi o‘zbek xalqining ma’naviy identiteti, milliy o‘ziga xosligi, axloqiy turmush tarzini ifodalaydi. Konsept sifatida o‘zbek millatiga xos bo‘lgan iffat, g‘urur, vijdon, do‘ppi, atlas, palov kabi lingvokulturemalar aynan fikrimizning isboti bo‘lishi mumkin.

Turli xalqlarda bu ifodaning turli ko‘rinishi mavjud. Jumladan, Rimda “nomus” tushunchasi fuqarolik huquqlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, faqat Rim fuqarosigina “nomus”ga ega hisoblangan. Germaniya tarixida esa aksincha, “nomus” subyektiv tushuncha sifatida har bir shaxsga xos axloqiy fazilat tarzida talqin qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqotda “or-nomus” konseptining tarkibiy qismlari bo‘lgan “or” va “nomus” leksemalarining kelib chiqishi hamda semantik strukturasini o‘rganishda bir qator zamonaviy lingvistik metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini konseptual tahlil, semantik tahlil hamda lingvokulturologik yondashuv tashkil etadi.

Tavsifiy (deskriptiv) metod - “or” va “nomus” so‘zlarining o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma’nolari, qo‘llanish xususiyatlari va semantik qatlamlari aniqlanib, ularning til tizimidagi o‘rni tavsiflandi. Mazkur jarayonda izohli va etimologik lug‘atlar, shuningdek, ilmiy manbalardagi ma’lumotlar tahlil qilindi.

Etimologik tahlil metodi – bu metod asosida “or” va “nomus” leksemalarining kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi hamda turkiy va fors-tojik til manbalari bilan bog‘liq jihatlari o‘rganildi. Bu metod orqali mazkur birliklarning tarixiy taraqqiyot jarayonida qanday o‘zgarishlarga uchragani va ma’no o‘zgarishlari aniqlashtirildi.

Semantik tahlil metodi – bu metod orqali “or” va “nomus” tushunchalarining ma’no komponentlari (semalari) ajratib ko‘rsatildi hamda ularning semantik strukturasini tashkil etuvchi asosiy elementlar belgilandi. Bu jarayonda leksemalarning ma’no maydoni, semantik yaqinlik va farqlari aniqlab berildi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida “or” va “nomus” tushunchalarining o‘zaro semantik munosabati hamda ularning umumiy va farqli jihatlari tahlil qilindi. Ushbu metod orqali mazkur birliklarning konseptual jihatdan o‘zaro bog‘liqligi va mustaqil ma’no xususiyatlari aniqlashtirildi.

Lingvokulturologik yondashuv ham qo‘llanilib, “or-nomus” konseptining o‘zbek xalqining milliy mentaliteti, axloqiy qadriyatlari hamda madaniy tasavvurlari bilan bog‘liq

jihatlarini yoritildi. Bunda til birliklarining nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy mazmuni ham tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, "or-nomus" konsepti o'zbek xalqining til va madaniyatida markazdan periferiyaga tomon yoyilgan murakkab lingvokulturologik tizimdir. Shuning uchun ham "or-nomus" konseptining lingvokulturemalari tarkibiga til birliklari (leksema (or, oriyat, iffat, frazeologizm (orini saqlamoq, nomusini yo'qotmoq), paremiologik birliklar (maqol, matal (Arava buzilsa - o'tin, qiz buzilsa -xotin), odob-axloqiy formulalar (Or qilaman!, Nomussiz!) , badiiy timsollar (badiiy asarlardagi or-nomus obrazlari) hamda ramzlar (paranji, do'ppi) kiradi. Ularning barchasi xalqning axloqiy-madaniy tajribasini ifodalaydi va til orqali avlodlardan-avlodga yetkaziladi. Mazkur tadqiqotimizning tahlili davomida or-nomus birliklarining lug'aviy ma'nolari va semantik qamrovi aniqlanib, ularning o'zbek tilidagi ma'naviy-axloqiy tushunchalarni ifodalashdagi o'rni o'rganildi.

Tahlil natijasida "or" leksemasi asosan shaxsning ichki ruhiy-axloqiy holati bilan bog'liq bo'lib, u uyat, hayo, ibo, izzat-nafs kabi semantik komponentlarni o'zida mujassamlashtirishi aniqlandi. Bu tushuncha insonning ichki axloqiy nazorati, o'zini tutish me'yorlari hamda nojo'ya xatti-harakatlardan tiyilish hissini ifodalaydi. Demak, "or" konsepti ko'proq individual va psixologik xarakterdagi axloqiy tuyg'uni anglatadi.

"Nomus" leksemasi esa semantik jihatdan kengroq ma'no doirasiga ega bo'lib, u shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini, obro'si va ijtimoiy mas'uliyati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "nomus" konsepti insonning jamiyatdagi mavqei, oilasi va yaqinlari oldidagi mas'uliyati hamda ijtimoiy baholanishi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli u ko'proq ijtimoiy-axloqiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Bu ikki tushunchaning birlashgan ko'rinishi, ya'ni "or-nomus" shaklida, insonning ham ichki axloqiy pokligi, ham jamiyat oldidagi sha'ni va qadr-qimmatini ifodalovchi yaxlit konseptni hosil qiladi.

Shu tarzda, xalq tilida va madaniyatida or-nomus konsepti leksemalar, frazeologizmlar, maqollar, badiiy timsollar, odob-axloqiy iboralar va madaniy ramzlar orqali turli qatlamlarda chuqur ifoda etiladi, u orqali axloqiy qadriyatlar tizimi shakllanadi va ijtimoiy normalar mustahkamlanadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ishimiz uchun xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o'zbek tilidagi or va nomus ifodalari bugungi kunda birlashib bitta yaxlit semani ifodalaguniga qadar ham bir qancha tarixiy jarayonlarni boshidan o'tkazgan. Bu jarayonda turli xalqlarda mazkur tushunchaning qanday ifodalanishi, alohida tahlil qilingandagi semalari, va qanday til birliklari vositasida ifodalanishi mumkin ekanligi ochib berilgan.

O'zbek mentalitetida "or-nomus" konseptining ifodalanishi tarixiy-falsafiy jihatdan O'rxun-Enasoy bitikdoshidagi shon va sharaf kabi umumiy ma'nolardan boshlanib bugungi kundagi zamonaviy adabiyotlarda ifodalangan oriyat va nomus tushunchalarining naqadar muhimligi bilan belgilanadi. Mazkur konseptga oid bir qancha ifodalar umumiy semalari yaxlit ekanligi bilan bir qatorda har bir leksema alohida dennotativ ma'nolari jihatidan farqlanadi. Bu

farqlar aynan atash ma’noning ifoda semasi, gender jihatdan xoslanishi, umumjamoaga va yakka shaxsga tegishli ekanligi bilan farqlanadi.

O‘zbek mentalitetida “or-nomus” konsepti xalqning asrlar davomida shakllangan axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlar tizimining markaziy unsuri hisoblanadi. Uning etnolingvistik ildizlari o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlar, diniy qarashlari hamda ijtimoiy munosabatlarida chuqur aks etgan. “Or-nomus” tushunchasi tilda nafaqat so‘z sifatida, balki milliy ong, vijdon, halollik va iffatni mujassamlashtiruvchi konseptual birlik sifatida yashaydi.

“Or-nomus” konseptining etnolingvistik ildizlari o‘zbek xalqining madaniy merosi, axloqiy ideallari va ijtimoiy ongini ifodalovchi asosiy tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. U til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatib, o‘zbek xalqining milliy o‘zligining ajralmas qismi sifatida qadriyat darajasiga ko‘tarilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Xudoyberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. – Toshkent, 2015.
3. Sh.Safarov. *Kognitiv tilshunoslik*. - Samarqand: Sangzor nashriyoti,. 2006.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh tomlik - T., 2008.
5. Xurramova M. Badiiy adabiyotlarda konsept tushunchasi. “Science and Education” Scientific Journal, 2023.
6. Yuldosheva G. “Or-nomus” konsepti orqali tilning ijtimoiy va axloqiy funksiyasini ochish. O‘zMU xabarlar. Toshkent. 2025.
7. Yuldosheva G. “Konsept” kategoriyasi lingvokulturologiya va konseptologiya fanlarining birligi sifatida. “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2026.